



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

## GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI QOSHIDAGI "ADOLAT" MILLIY HUQUQIY  
AXBOROT MARKAZI"

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI QOSHIDAGI "ADOLAT" MILLIY HUQUQIY  
AXBOROT MARKAZI"

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

04.11.2002

004542-04

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

201453166

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

Muassasa


Joylashgan joyi:

Toshkent shahri, Mirobod tumani, AMIR TEMUR SHOX KO'CHASI, 19-UY,

Guvohnoma:

Toshkent shahri, Mirobod tumani, DAVLAT XIZMATLARI tomonidan  
MARKAZI berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):



**“Inson va qonun” gazetasi**  
**sonlarini yetkazib berish (obuna)**  
**SHARTNOMASI № IQ-02/22**

2022 yil “24” yanvar

Toshkent sh.

“Adolat” milliy xuquqiy axborot markazi nomidan direktor F. Tojiyev, bundan buyon matnda “YETKAZIB BERUVCHI” deb ataluvchi bir tomondan, *Davlat xizmatlari agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi* nomidan A.Rahmonov, bundan buyon matnda “BUYURTMACHI” deb ataluvchi ikkinchi tomondan quyidagilar to‘g‘risida ushbu shartnomani tuzdilar.

**I. Shartnoma predmeti**

1. YETKAZIB BERUVCHI “Inson va qonun” gazetasi (keyingi o‘rinlarda “gazeta” deb yuritiladi)ni har hafta seshanba kunlari, birinchi va oxirgi sahifalari rangli ko‘rinishda chop etadi va BUYURTMACHIGA obuna to‘lovi asosida yetkazib beradi.

**II. Mahsulot soni, hajmi, bahosi**

T/r	Mahsulot nomi	Komplekt soni	Bir komplet narxi bir yil uchun (QQS bilan)	Jami narxi (QQS bilan)
1	“Inson va qonun” gazetasi	17	300 000 (uch yuz ming) so‘m	5 100 000

Ushbu shartnoma bo‘yicha obunaning umumiy summasi 5 100 000.00 (*besh million bir yuz ming*) so‘mni tashkil etadi.

**III. Gazeta sonlarini yetkazib berish muddati va tartibi**

3. “YETKAZIB BERUVCHI” “BUYURTMACHI” ga gazeta sonlarini bosmaxonada uning to‘liq adadi chop qilinganidan keyin 5 ish kuni ichida yetkazib beradi. gazeta sonlarini yetkazib berish bilan bog‘liq barcha xarajatlar “YETKAZIB BERUVCHI” hisobidan qoplanadi.

**IV. To‘lov tartibi**

4. “BUYURTMACHI” ushbu shartnoma bo‘yicha obuna uchun to‘lov summasini ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab besh bank kuni ichida, shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g‘aznachilik bo‘limlarida ro‘yxatga olinishi lozim bo‘lganda, shartnoma tegishli tartibda ro‘yxatga olingan kundan boshlab 10 bank ish kunidan kechiktirmasdan “YETKAZIB BERUVCHI” hisobraqamiga pul o‘tkazish orqali to‘liq oldindan (100%) amalga oshiradi.

To‘lov naqd pulsiz shaklda to‘lov topshiriqnomasi asosida yoki naqd pul mablag‘larini bank muassasalari orqali “YETKAZIB BERUVCHI”ning hisobraqamiga o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

**V. Tomonlarning majburiyatlari va javobgarligi**

5.1. “YETKAZIB BERUVCHI” “BUYURTMACHI”ni ushbu shartnomada belgilangan muddat va miqdorda gazeta sonlari bilan ta‘minlaydi.

5.2. “BUYURTMACHI” ushbu shartnomaning belgilangan qismida va to‘lov topshiriqnomasida o‘zining to‘liq nomi va manzilini, pochta indeksi, STIR, OKED, bank hisob raqami, bank kodi, telefon raqamlarini to‘liq ko‘rsatishi shart.

5.3. “BUYURTMACHI” 5.2.-bandda ko‘rsatilgan shartlarni obuna shartnomasi hamda to‘lov topshiriqnomasida (yoxud pochta kvitansiyasida) aniq va ravshan ko‘rsatmagan holda taqdim etsa, “YETKAZIB BERUVCHI” gazetani ushbu kamchiliklar obunachi tarafidan bartaraf etilmaguncha yetkazib berishni kafolatlamaydi.

5.4. “BUYURTMACHI” shartnomani bir tomonlama bekor qilgani, manzili o‘zgargani, tashkilot o‘z faoliyatini respublika hududida to‘xtatgani haqida tahririyatga bir oy muddatda xabar qilmasa, obuna qoldig‘i summasi miqdoridan qat‘iy nazar, qayta hisob-kitob qilinmaydi.

5.5. “YETKAZIB BERUVCHI” aybi bilan (fors-major holatlaridan tashqari) gazetaning chop etilmagan sonlari uchun ushbu sonlar summasi miqdoridagi pul mablag‘i OBUNACHIGA qaytariladi.

**VI. Korrupsiyaga qarshi kurashish shartlari**

6.1. Taraflar shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarayotganda O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va‘da bermaydi,



tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

6.2. Agar shartnoma bo'yicha bir taraf O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilish kerak: "1008" ishonch telefoni, telegram-kanali ("@anticorbot"), Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

#### VII. Fors-major

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki yetarli darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

7.2. Vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo'lmas kuch mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

7.3. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari uzluksiz 15 kun davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

#### VIII. Nizolarni hal etish tartibi

8. Ushbu shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq, tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan, shuningdek, yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar taraflarning o'zaro kelishuvi yoxud qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

#### IX. Yakuniy qism

9.1. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuziladi, ulardan biri obunachida qoladi, boshqa nusxasi tahririyatga topshiriladi.

9.2. Shartnoma muddati ushbu shartnomada ko'rsatilgan gazeta sonlarining yetkazib berilishi bilan tugagan hisoblanadi.

9.3. Ushbu shartnoma tomonlar uni imzolagan kundan, shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g'aznachilik bo'limlarida davlat ro'yxatiga olinishi lozim bo'lgan taqdirda, tegishli tartibda ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrga qadar, shartnoma yillik to'liq obuna miqdoriga tuzilganda esa davriy nashrning so'nggi soni yetkazib berilgunga qadar amal qiladi.

#### XI. Taraflarning yuridik manzillari va rekvizitlari

##### "Yetkazib beruvchi"

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
qoshidagi "Adolat" milliy huquqiy  
axborot markazi davlat muassasasi  
Manzili: Toshkent shahri, Amir Temur  
shohko'chasi, 19-uy  
H/r: 20212000300125676003  
"Mikroreditbank" ATB Bosh ofisi,  
MFO: 00433, INN 201453166,  
OKEB: 63110, RKP NDS: 326010014912



Direktor  F. Tojiyev

##### "Buyurtmachi"

Davlat xizmatlari agentligi  
Surxondary viloyati hududiy boshqarmasi  
Manzili: Termiz shahri, At-Termiziy  
maydonii, 2-uy  
Shg'h: 400121860224017016901255001  
STIR: 207268676 IFUT:84112  
Moliya vazirligi g'aznachiligi  
STIR: 201122919 MFO: 00014  
Markaziy bank, Toshkent sh. BHKK



Boshliq  A. Rahmonov